



ZAMONAVIY O‘ZBEK RASSOMLARI IJODIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Bekberganov Javohir Erkinboy o‘g‘li

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

San‘atshunoslik va amaliy san‘at fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek rassomlari ijodida kuzatilayotgan innovatsion yondashuvlar tahlil qilinadi. Video-art, o‘rnatma san‘at (installation), sun‘iy intellekt va raqamli texnologiyalar, to‘qimachilik san‘ati hamda badiiy performans kabi yangi ifoda vositalarining milliy badiiy amaliyotga kirib kelishi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot O‘zbekiston San‘at va Madaniyatni Rivojlantirish Jamg‘armasi (ACDF) tomonidan amalga oshirilgan hujjatlashtirilgan loyihalar 2021-2024-yillarda Venetsiya biennesidagi ishtiroklar hamda 2025-yilda Buxoro biennesi doirasidagi faoliyatlar — asosida olib borilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek rassomlari zamonaviy texnologiyalar va konseptual yondashuvlarni milliy madaniy xotira hamda an‘anaviy hunarmandchilik bilan muvaffaqiyatli uyg‘unlashtirmoqda.

Kalit so‘zlar: *innovatsion san‘at, video-art, o‘rnatma san‘at, sun‘iy intellekt, Venetsiya biennesi, Buxoro biennesi, zamonaviy o‘zbek rassomchiligi, raqamli san‘at, madaniy identitet, performans san‘at.*

Abstract: This article examines the innovative approaches emerging in the work of contemporary Uzbek artists. It analyses the integration of new expressive media — video art, installation art, artificial intelligence and digital technologies, textile art, and performance art — into national artistic practice. The study is based on documented projects implemented by the Uzbekistan Art and Culture



Development Foundation (ACDF), including Uzbekistan's participation in the Venice Biennales (2021-2024) and the inaugural Bukhara Biennial (2025). The results demonstrate that Uzbek artists successfully combine contemporary technologies and conceptual approaches with national cultural memory and traditional craftsmanship.

Keywords: *innovative art, video art, installation art, artificial intelligence, Venice Biennale, Bukhara Biennial, contemporary Uzbek art, digital art, cultural identity, performance art.*

XXI asrda jahon tasviriy san'ati jadal o'zgarishlar davriga kirdi. Video-art, o'rnatma san'at (instalyatsiya), raqamli va interaktiv san'at shakllari an'anaviy rassomchilik hamda haykaltaroshlik bilan teng huquqli badiiy ifoda vositalariga aylandi. O'zbekiston ham ushbu jarayondan chetda qolmadi. So'nggi yillarda o'zbek rassomlarining xalqaro maydondagi faolligi sezilarli darajada oshdi, yangi avlod ijodkorlari esa global badiiy oqimlarga nisbatan o'z ijodiy pozitsiyalarini yanada aniqroq ifoda eta boshladilar.

Ushbu mavzuning dolzarbligi bir necha jihatlar bilan izohlanadi. Birinchidan, O'zbekiston 2021-yilda Venetsiya me'morchilik biennalesida, 2022-yilda esa Venetsiya san'at biennalesida ilk bor milliy pavilyon bilan ishtirok etib, mamlakat san'at tarixida muhim bosqichni bosib o'tdi. Ikkinchidan, 2024-yilgi Venetsiya biennalesida O'zbekiston vakilli Aziza Qodiriy sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni an'anaviy o'zbek kashtachiligi bilan uyg'unlashtirib, xalqaro miqyosda katta e'tibor qozondi. Uchinchidan, 2025-yilda tashkil etilgan Buxoro biennalesi Markaziy Osiyodagi eng yirik zamonaviy san'at tadbirlaridan biriga aylandi.



Shu bilan birga, mazkur yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlar hali yetarli darajada rivojlanmagan. Zamonaviy o‘zbek rassomlarining innovatsion amaliyotini tizimli tahlil qiluvchi ilmiy ishlar soni cheklangan bo‘lib, mavjud tadqiqotlar asosan tarixiy yoki umumiy yondashuvga asoslangan. Ushbu maqola mazkur ilmiy bo‘shliqni qisman to‘ldirishga qaratilgan dastlabki urinishlardan biri sifatida taqdim etiladi.

Ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi.

Birinchidan, zamonaviy o‘zbek san‘atida innovatsion yondashuvlar ilk bor tizimli ravishda tasniflanadi. Ushbu tasnif video-art, raqamli va interaktiv san‘at, to‘qimachilik va texnologiya sintezi, hamkorlikka asoslangan loyihalar hamda muhit bilan muloqotga asoslangan o‘rnatma san‘at (installation) shakllarini o‘z ichiga oladi.

Ikkinchidan, Venetsiya biennalesi (2022, 2024) va Buxoro biennalesi (2025) kabi hujjatlashtirilgan xalqaro madaniy voqealar asosida zamonaviy o‘zbek rassomlari ijodi tahlil qilinadi. Mazkur tahlil ishonchli va tasdiqlangan manbalarga tayangan holda amalga oshiriladi.

Uchinchidan, Saodat Ismoilova, Aziza Qodiriy kabi xalqaro miqyosda tan olingan zamonaviy o‘zbek rassomlarining innovatsion ijodiy amaliyoti ilk bor o‘zbek tilidagi ilmiy kontekstda kompleks tarzda o‘rganiladi.

To‘rtinchidan, innovatsion san‘at va an‘anaviy hunarmandchilik o‘rtasidagi o‘zaro munosabat yangi nazariy yondashuv asosida tahlil qilinib, ularning integratsiya mexanizmlari ilmiy jihatdan yoritiladi.

O‘zbekiston zamonaviy san‘atining innovatsion yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy adabiyotlar hozircha yetarli darajada shakllanmagan. Bu sohadagi eng muhim umumlashtiruvchi manbalardan biri Kamola Oqilovning (2023) **“Zamonaviylikdan postmodernizmgacha”** nomli maqolasi bo‘lib, unda o‘zbek tasviriy san‘atidagi asosiy badiiy oqimlar tasniflangan. Biroq mazkur ishda asosan



an'anaviy janrlar — rangtasvir, grafika va haykaltaroshlikka e'tibor qaratilgan bo'lib, video-art va raqamli san'at yo'nalishlari tadqiqot doirasidan chetda qolgan.¹

Xalqaro ilmiy kontekstda Rico Isaacs va Erika Marat (2021-yil) tahriridagi **“Routledge Handbook of Contemporary Central Asia”** asari postsovet Markaziy Osiyodagi zamonaviy san'at jarayonlariga umumiy yondashuvni taqdim etadi.² Alexandra Tsay tomonidan yozilgan bobda Markaziy Osiyoda zamonaviy san'atning rivojlanishi, sovet merosi va global zamonaviylik o'rtasidagi murakkab o'zaro munosabatlar tahlil etilgan bo'lsa-da, unda individual o'zbek rassomlari ijodiga yetarli darajada e'tibor qaratilmagan.³

Zamonaviy o'zbek rassomlarining innovatsion amaliyotiga bevosita oid hujjatlashtirilgan manbalar orasida **ArtReview** (2022-yil), **Artnet** (2022-yil), **Smithsonian Institution** (2025-yil) va **Frieze** (2025-yil) kabi nufuzli xalqaro nashrlardagi maqolalar alohida ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotda aynan ushbu manbalar tahlilning asosiy empirik bazasi sifatida qo'llanildi.

O'zbekiston xalqaro badiiy maydonga kirishi: Venetsiya biennalesi

O'zbekistonning jahon san'ati sahnasiga kirishi rasman 2021-yilda Venetsiya me'morchilik biennalesida milliy pavilyonning ilk bor ochilishi bilan boshlandi. 2022-yilda esa 59-Venetsiya san'at biennalesida **“Dixit Algorizmi — Bilim bog'i”** nomli pavilyon taqdim etildi. Bu O'zbekistonning Venetsiya san'at biennalesidagi birinchi milliy ishtiroki sifatida tarixiy ahamiyatga ega. Mazkur pavilyon italiyalik

¹ Akilova, Kamola. (2023). *Contemporary fine arts of Uzbekistan: From realism to postmodernism*. InContext, 3(1), 140–156. John Benjamins.

² Isaacs, Rico; Marat, Erica (Eds.). (2021). *Routledge Handbook of Contemporary Central Asia*. Routledge. <https://doi.org/10.4324/9780429057977>

³ Tsay, Alexandra. (2021). Contemporary art in Central Asia. In R. Isaacs & E. Marat (Eds.), *Routledge Handbook of Contemporary Central Asia* (pp. 351–364). Routledge.



me'mor va kurator Jozef Grima boshchiligidagi Space Caviar studiyasi hamda kurator Sheida G'omashchi tomonidan loyihalashtirilgan.⁴

Asosiy g'oya IX asrda Xorazm hududida yashab ijod qilgan matematik Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy merosiga bag'ishlanib, zamonaviy raqamli algoritmlarning tarixiy ildizlarini Markaziy Osiyo ilmiy an'anasi bilan bog'lashga qaratilgan edi. Ovozli va geometrik o'rnatma shaklida yaratilgan pavilyon texnologiya tarixi hamda madaniy xotira o'rtasidagi munosabatni muhokama qilish uchun platforma vazifasini bajardi.

2024-yilgi 60-Venetsiya biennalesida O'zbekistonni Aziza Qodiriy va Qizlar kollektivining vakillari taqdim etdi. Ularning **“Don't Miss the Cue”** (“Ishorani o'tkazib yuborma”) nomli loyihasi teatr sahna orti, to'qimachilik, ekranlar, an'anaviy kashtachilik va ovoz yozuvlarini birlashtirgan keng ko'lamli immersiv o'rnatma sifatida namoyon bo'ldi.⁵ Loyihaning eng muhim innovatsion jihati an'anaviy o'zbek suzani kashtasini qayta talqin qilishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishdir. Rasmiy tavsiflarda ta'kidlanganidek, ushbu yondashuv to'qimachilik va identitet, texnologiya va madaniy meros o'rtasidagi munosabatni yangi nuqtai nazardan ochib beradi.

Saodat Ismoilova: video-art orqali madaniy xotira

1981-yilda Toshkentda tug'ilgan Saodat Ismoilova zamonaviy o'zbek san'atining xalqaro maydonda eng keng tanilgan vakillaridan biridir. U Toshkent davlat san'at institutini hamda Fransiyadagi Le Fresnoy Zamonaviy san'atlar milliy studiyasini tamomlaganidan so'ng film va video-o'rnatma janrlarida ijod qiladi. Hozirda Parij va Toshkentda faoliyat yuritadi. Uning ijodiy yo'lida 2022-

⁴ La Biennale di Venezia. (2022). Uzbekistan (Republic of) — Dixit Algorizmi: Garden of Knowledge. 59th Venice Biennale.

⁵ E-flux. (2024). Aziza Kadyri and Qizlar Collective: Don't Miss the Cue.



yil alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u bir vaqtning o‘zida ikkita nufuzli xalqaro ko‘rgazmada – Venetsiya biennalesining asosiy dasturida (“Milk of Dreams”, kurator Chichilia Alemani) hamda Germaniyaning Kassel shahridagi Documenta 15 ko‘rgazmasida ishtirok etgan ilk o‘zbek rassomi bo‘ldi.⁶ Bu holat ArtReview nashrida qayd etilgan. Shu yili u Amsterdamdagi Eye kinomuzeyi tomonidan beriladigan “Eye Art & Film” mukofotiga sazovor bo‘ldi.

2025-yilda Ismoilova bir qator xalqaro mukofotlarga ega bo‘ldi, jumladan **“Foundation Pernod Ricard”** mukofoti, **“Art Basel”** mukofoti hamda **“Han Nefkens”** mukofoti. Uning asarlari **Stedelijk muzeyi** (Amsterdam) va **Pompidu markazi** (Parij) kolleksiyalarida saqlanadi. 2025-yil iyun oyida Vashingtondagi Smithsonian National Museum of Asian Art muzeyida uning AQShdagi ilk yirik shaxsiy ko‘rgazmasi ochildi. Ismoilovanning ijodiy metodologiyasi film, fotografiya va hujjatli materiallarni arxiv manbalari, landshaft tasvirlari va og‘zaki tarix bilan uyg‘unlashtirishga asoslanadi. Uning 2022-yil Venetsiya biennalesida namoyish etilgan **“Chillaxona”** asari Toshkentdagi ziyorat maskanlari yonidagi yerosti makonlarda suratga olingan uch kanalli video-o‘rnatma bo‘lib, Markaziy Osiyo og‘zaki an‘analari va zamonaviy kinematografik tilni uyg‘unlashtiradi. 2021-yilda u Toshkentda Markaziy Osiyo madaniyati va bilim tizimini tadqiq etish, hujjatlashtirish va tarqatishga yo‘naltirilgan Davra tadqiqot jamoasiga asos soldi.

Aziza Qodiriy: to‘qimachilik, texnologiya va feminist yondashuv

1994-yilda tug‘ilgan Aziza Qodiriy Londonda faoliyat yurituvchi o‘zbek rassomidir. U Pekindagi Tsinghua universitetida moda dizayni, Londonning Central Saint Martins maktabida esa performans dizayni va amaliyoti bo‘yicha magistratura tahsilini olgan. Uning ijodiy amaliyoti to‘qimachilik, o‘rnatma san‘at, performans,

⁶ Smithsonian Institution. (2025). Uzbek Artist Saodat Ismailova Makes Her U.S. Museum Debut at the Smithsonian.



haykaltaroshlik va ijodiy texnologiyalarni qamrab oladi. U Qizlar kollektivining — O‘zbekiston va diasporadan chiqqan rassomlar va faollar guruhining — asoschilaridan biridir. Uning 2024-yil Venetsiya biennalesidagi “Don’t Miss the Cue” loyihasi an’anaviy suzani kashtasini sun’iy intellekt yordamida qayta talqin qilishga asoslangan.

East Contemporary galereyasi ta’rifiga ko‘ra, u *“an’anaviy hunarmandchilikning yangi imkoniyatlarini ochish uchun sun’iy intellekt va kengaytirilgan reallik texnologiyalaridan foydalanadi”*.

Mazkur loyiha Polshada o‘tkazilgan 18-Xalqaro to‘qimachilik triennalesida Oltin medal bilan taqdirlangan. 2025-yilda Qodiriy “Somerset House Studios”da ijodiy texnologiyalar bo‘yicha rezident sifatida faoliyat yuritdi va “CIRCA Prize 2025” finalchisi bo‘ldi. Uning asarlari **Fondazione Elpis** (Milan), **KINDL** (Berlin) va **Viktoriya va Albert muzeyi** (London) kabi muassasalarda namoyish etilgan. Shuningdek, u 2025-yilda Buxoro biennalesida ham ishtirok etdi.

Buxoro biennalesi (2025): an’ana va innovatsiya kesishmasi

2025-yil 5-sentyabrdan 23-noyabrgacha O‘zbekistonda ilk bor Buxoro biennalesi tashkil etildi. ACDF tomonidan amalga oshirilgan va Gayane Umerova tomonidan komissarlashtirilgan ushbu biennale Diana Kempbell bosh kuratorligi ostida **“Siniq yuraklar uchun retseptlar”** mavzusida o‘tkazildi.⁷ Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, tadbir 1,8 milliondan ortiq tashrif buyuruvchini jalb qilgan. Biennale 70 dan ortiq mahalliy va xalqaro rassomlarni birlashtirdi. Uning asosiy innovatsion jihati zamonaviy rassomlar va mahalliy hunarmandlar o‘rtasidagi hamkorlik asosida yaratilgan loyihalardir. Frieze ta’rifiga ko‘ra, ushbu biennale **“zamonaviy san’at va madaniy meros uyg‘unlashadigan dinamik platforma”**

⁷ Bukhara Biennial. (2025). *Recipes for Broken Hearts* — Official website.



sifatida namoyon bo'lgan. Biennale doirasidagi muhim ishlardan biri Oyjon Xayrullayeva, Rahmon Toirov va Rauf Taxirov tomonidan yaratilgan "Sakkiz hayot" (2024-2025 yy.) installyatsiyasi bo'lib, u an'anaviy Buxoro kulolchilik maktabi asosida yaratilgan yirik ko'lamli o'rnatmadir. Shuningdek, hujjatli fotografiya yo'nalishida ijod qiluvchi Behzod Boltaev ham biennale ishtirokchilaridan biri bo'lib, u Buxoro hujjatli fotografiya maktabi an'alarini davom ettiradi.

Innovatsion yondashuvlarning umumiy tasnifi

Tahlil natijalariga ko'ra, zamonaviy o'zbek tasviriy san'atida innovatsion yondashuvlar bir necha asosiy yo'nalishga ajraladi.

Birinchi yo'nalish — video-art va kinematografik til orqali madaniy xotirani tadqiq etish. Bu yo'nalishda Saodat Ismoilova yetakchi o'rin egallaydi.

Ikkinchi yo'nalish — an'anaviy hunarmandchilik va zamonaviy texnologiyalar sintezi bo'lib, Aziza Qodiriy ijodi ushbu tendensiyaning yorqin namunasidir.

Uchinchi yo'nalish — algoritmik tafakkur va raqamli tarix orqali identitetni qayta talqin etish bo'lib, 2022-yil Venetsiya biennalesidagi "Dixit Algorizmi" pavilyoni bunga misoldir.

To'rtinchi yo'nalish — sayt-spetsifik va hamkorlikka asoslangan o'rnatmalar bo'lib, Buxoro biennalesi doirasidagi loyihalarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Zamonaviy o'zbek rassomlarining innovatsion amaliyoti qisqa vaqt ichida ayniqsa 2021-yildan boshlab sezilarli o'zgarishlarga uchradi. Venetsiya biennalesi, Buxoro biennalesi hamda xalqaro rezidensiya dasturlari orqali o'zbek ijodkorlari jahon badiiy jarayonlarining faol ishtirokchilariga aylanmoqda. Ushbu tadqiqot asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi. Birinchidan, innovatsion yondashuvlar



o‘zbek san’atida allaqachon mustahkam o‘rin egallagan bo‘lib, bu jarayon nafaqat akademik doirada, balki xalqaro badiiy maydonda ham keng e’tirof etilmoqda. Saodat Ismoilovanning Pompidu markazi va Smithsonian kabi nufuzli muassasalarda namoyish etilishi buning yaqqol isbotidir. Ikkinchidan, innovatsiya ko‘pincha an’anani inkor etmaydi, aksincha, uni yangi madaniy va texnologik kontekstda qayta talqin qiladi. Aziza Qodiriyning suzani kashtachiligi va sun’iy intellektni uyg‘unlashtirgan loyihasi ushbu yondashuvning yorqin misolidir. Uchinchidan, ACDF kabi institutsional qo‘llab-quvvatlash, xalqaro hamkorlik hamda “Qizlar kollektivi” va “Davra” kabi ijodiy jamoalarning faoliyati yangi avlod o‘zbek rassomlarining global san’at maydonida tan olinishiga xizmat qilayotgan samarali modelni shakllantirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Akilova, Kamola. (2023). *Contemporary fine arts of Uzbekistan: From realism to postmodernism*. InContext, 3(1), 140–156. John Benjamins. <https://doi.org/10.54754/incontext.v3i1.32>
2. Isaacs, Rico; Marat, Erica (Eds.). (2021). *Routledge Handbook of Contemporary Central Asia*. Routledge. <https://doi.org/10.4324/9780429057977>
3. Tsay, Alexandra. (2021). Contemporary art in Central Asia. In R. Isaacs & E. Marat (Eds.), *Routledge Handbook of Contemporary Central Asia* (pp. 351–364). Routledge.
4. ArtReview Editorial. (2022, June 10). Saodat Ismailova wins £25,000 Eye Art & Film Prize. ArtReview. <https://artreview.com/saodat-ismailova-wins-eye-art-film-prize/>
5. Smithsonian Institution. (2025). Uzbek Artist Saodat Ismailova Makes Her U.S. Museum Debut at the Smithsonian.



6. La Biennale di Venezia. (2022). Uzbekistan (Republic of) — Dixit Algorizmi: Garden of Knowledge. 59th Venice Biennale.
7. <https://www.labiennale.org/en/art/2022/uzbekistan-republic>
8. ArtReview Editorial. (2022). Uzbekistan Pavilion presents: Dixit Algorizmi — The Garden of Knowledge. <https://artreview.com/uzbekistan-pavillion-presents-dixit-algorizmi-the-garden-of-knowledge/>
9. E-flux. (2024). Aziza Kadyri and Qizlar Collective: Don't Miss the Cue. <https://www.e-flux.com/announcements/598720/>
10. Bukhara Biennial. (2025). *Recipes for Broken Hearts* — Official website.
11. The Art Newspaper. (2023, October 20). Uzbekistan launches ambitious new cultural agenda. <https://www.theartnewspaper.com/2023/10/20/uzbekistan-culture-push-contemporary-art-museum-tashkent>